

**“Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ barcha ovoz beruvchi aksiyalari
bo'yicha yagona aksiyadorining 3/2026-sonli
QARORI**

Toshkent sh.

2026-yil 25 may

“Yangi Angren IES” AJning jami chiqarilgan va joylashtirilgan aksiyalari 37 732 650 donani tashkil etadi, jumladan:

- 37 579 750 dona oddiy;

- 152 900 dona imtiyozli aksiyalar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-noyabrdagi 02/09-5-17/685-sonli ishonchnomasiga muvofiq “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv raisi B.Jurayevga yagona aksiyador nomidan ovoz berish huquqi berilgan.

Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 58 va 59-moddalariga asosan quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

KUN TARTIBI:

1. “Yangi Angren IES” AJning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini ko'rib chiqish to'g'risida.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-77-sonli qaroriga muvofiq “Yangi Angren IES” AJ tarkibidagi 6-energoblok foydalanishdan chiqarilishi munosabati bilan o'rnatilgan (ustanovlenniy) uskunalarning texnik parametrlari o'zgarganligi ma'lum bo'lgan, ya'ni energobloklar soni 7dan bitta energoblok ekspluatatsiyadan chiqarilishi munosabati bilan 6 ta bo'lgan, o'rnatilgan quvvatlar 2100 mVtdan 1243 mVt bo'lgan. Har bir energoblokning quvvati 300 Mvt bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 207 mVt ni tashkil qilmoqda; bitta energoblokning bug' ishlab chiqarish hajmi (paraproizvoditelnost) 1000 tn/soatdan 750 tn/soatga tushgan. Ishlab chiqarish parametrlarining o'zgarishi xodimlar sonining me'yoriga ta'sir qilgan. Yangi parametrlar asosida xodimlarning me'yoriy soni qayta hisoblab, shtat birliklarini optimallashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Yangi Angren IES” AJ kuzatuv kengashining 2026-yil 24-aprel oyidagi kuzatuv kengashi qaroriga asosan jamiyatning boshqaruv tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi ma'qullandi.

Shuningdek, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil 22-maydagi 02/9.2-17/272-sonli xati bilan e'tiroz yo'qligini bildirgan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Yangi Angren IES” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalarining egasi-yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. “Yangi Angren IES” AJning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, “Yangi Angren IES” AJning xodimlarning umumiy soni **1619 ta** etib belgilansin.

2. “Yangi-Angren IES” AJ bosh direktori (Rajabov)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-77-sonli qaroriga muvofiq “Yangi Angren IES” AJ tarkibidagi 6-energoblok foydalanishdan chiqarilishi munosabati bilan yangi parametrlar asosida xodimlarning me‘yoriy soni qayta hisoblansin va shtatlar soni jami 77 ta shtat birligiga kamaytirilsin, bunda (Yoqilg‘i uzatish sexi – 7 ta, 1-2-Qozon turbina sexi – 6 ta, Elektr sexi – 4 ta, Issiqlik uskunalarini sinash va sozlash sexi – 1 ta, Kimyo sexi – 7 ta, Mazut xo‘jaligi – 14 ta, Issiqlik avtomatikasi va o‘lchov sexi – 7 ta, Metrologiya va standartlashtirish xizmati – 1 ta, Markaziy ta‘mirlash sexi – 14 ta, Gidrotexnika inshootlar sexi – 1 ta, Qurilish ta‘mirlash sexi – 1 ta, Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘limi – 2 ta, Avtosaroy – 6 ta, Ishlab chiqarish texnik bo‘limi – 3 ta, Ma‘muriy xo‘jalik bo‘limi – 1 ta, buxgalteriya – 1 ta, Kapital qurilish bo‘limi – 1 ta, Moddiy texnik ta‘minot bo‘limi – 1 ta, Axborot havfsizligi bo‘limi – 1 ta).

3. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi asosida shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash yuklatilsin.

**“Yangi Angren IES” AJning barcha ovoz
beruvchi aksiyalarining ishonchnoma asosida
boshqaruvchisi - yagona aksiyadori
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruv
raisi**



B. Jurayev

